
G'ALLACHILIK KLASTERI RAHBARI ICHKI KO'CHANI ASFALT QILIB BERDI



Bu yil yurtimizda g'alla mo'l bo'ldi. Joriy yilgi g'alla mavsumini uyushqoqlik bilan o'tkazib, ulkan xirmon uyishga erishgan Qo'shtepa tumani fermerlari hududlarda yashovchi kam ta'minlangan va ehtiyojmand oilalarga hamda "Temir daftar", "Ayollar daftari" va "Yoshlar daftari" da turuvchi fuqarolarga bug'doy va xo'jalik uchun zarur mahsulotlarni beg'araz tarqatishib, moddiy yordam ham berishmoqda.

Xususan, bu yilgi g'alla hosili yig'imi davomida mo'l hosil yetishtirgan g'allachilik klasteri rahbari X.Qosimov "Borot" MFY hududidagi "Orzu" ko'chasiga asfalt yotqizilishiga homiylik qildi. Ushbu ko'chada istiqomat qiluvchilar ham bu tashabbusni qo'llab-quvvatlashib, imkon qadar moddiy tomondan ko'mak berishdi. Yosh-u qari ahil bo'lib asfaltlashtirish jarayonida faol ishtirok etishdi va ko'chani 300 metr qismi asfaltlashtirildi.

[Bizni ijtimoiy tarmoqlarda kuzating](#)

[Facebook](#),

2023-07-06 10:54:44